

QORAQALPOG‘ISTON VA XORAZM ME‘MORIY OBIDALARIDAGI XATTOTLIK VA YOG‘OCH O‘YMAKORLIGI SAN‘ATINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

Tleumuratov Azat Aymuratovich

Berdaq nomidagi QDU mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20180035>

Ma'lumki, Xorazm dunyodagi me'moriy yodgorliklarga eng boy viloyatlardan biridir. XIX asrning oxirida Xiva shahrida ikki yuzdan ziyod hattotlar, yog'ochga ishlov beruvchi va o'ymakor-ustalar bo'lgan. Ular zo'r mahorat bilan ishlagan me'moriy inshootlardagi hattotlik ishlari va yog'och o'ymakorligi konstruksiyalari 1000 yillardan buyon buzilmasdan, o'zining strukturasini saqlagan holda bizgacha yetib kelgan.

Xorazm tarixiy me'moriy yodgorliklarining me'moriy-loyihaviy yechimiga ko'ra obidalarining 40-50% elementlari, konstruksiyalari yog'ochdan tiklangan va ularga sayqal berib ishlangan. Bugungi kunda, Xorazm me'moriy yodgorliklaridagi ushbu noyob va zarur yog'och konstruksiyalarining 30%i turli xil ko'rinishdagi salbiy ta'sirlar (termitlar, o'simliklarni o'sishi, tuzning ta'siri, mog'orlash, chirish va h.k.lar) natijasida yemirilmoqda va buzilmoqda [1, 3 b.]. Yana shuni alohida qayd etish joizki, bugungi kunda qurilayotgan imoratlarga, xiyobonlarga, maydonlarga ishlatilayotgan yog'och konstruksiyalar atrof-muhit ta'siridan hamda eng asosiysi ushbu yog'och ustunlari-u, eshiklarni ishlayotgan ustalarning bajargan ishlari 1-2 yilga yetmasdan yorilmoqda, yemirilmoqda.

Chunki, yog'ochni ekspluatatsiya qilishdan oldin unga beriladigan ishlovni mukammal olib borish kabi, bitta "katta kitob"ga ham sig'maydigan yog'ochni ishlash konuniyatlariga, texnologiyasiga e'tibor qilmaslik yoki umuman bu ilmlar to'g'risida yetarli ma'lumoti yo'q ustalar tomonidan yog'och qurilmalar ishlanayotganligi bunga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, qadimda eng yuqori darajada rivojlangan Xorazm xattotlik san'ati namunalarini mukammal biladigan hattotlar viloyatimizda hozircha, deyarli yo'qligi achinarli holdir. Eng achinarlisi, kelgusi avlod uchun ham ilm va ham hunar hisoblangan xattotlik ishlari esa bugungi kunda unutilib ketmoqda. Hozirda, xivalik mohir usta-quruvchilarga respublikamiz va MDH mamlakatlarida masjidlar, minoralar va boshqa me'moriy inshootlarni buyurtma bilan qurdirayotgan xususiy shaxslar va turli tashkilot rahbarlari peshtoqlarga, ustunlarga va kitoblarga arab tilida yozuvlar yozdirish uchun mohir hattotlar topishi muammo tug'dirmoqda.

Shu kungacha Xorazm me'morчилиgidagi xattotlik san'ati va ularda ishlatilgan yog'och konstruksiyalarining xususiyatlari hamda yog'och o'ymakor usta-hunarmandlar to'g'risida, ularning yaratgan ijodiy ishlarining sir-asrorlari, ishlov berish usullari ilmiy tadqiq kilinmagan va ular to'g'risida batafsil yorituvchi maxsus risola chop qilinmagan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni e'tiborga olgan holda - Xorazm me'moriy yodgorliklaridagi hattotlik ishlari va yog'och konstruksiyalar bo'yicha "axborotlar banki"ni yaratish, ularning tarixi, muallifi, chizmalari, strukturasi, naqshlari, yozuvlari bo'yicha namunalar tayyorlash, rangli katalog tayyorlash hamda yoshlarimiz uchun hattotlik bo'yicha usta-shogird maktabini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida vazifalar amalga oshirilsa, dunyo sivilizatsiyasida o'z o'rni bo'lgan Xorazm tarixiy me'moriy obidalaridagi yog'och konstruksiyalarining umrboqiyiligi ta'minlanadi, qadimiy xorazmlik yog'och o'ymakorlarning va hattotlarning tarixiy merosi ilmiy o'rganiladi, ushbu san'at asarlaridan tuzilgan katalog esa kelgusi avlodlarga bebaho xazina bo'lib qoladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdullaev I.I., Xamarev A.Sh. Xorazm me'moriy yodgorliklarini biologik ta'sirlardan ximoya qilish muammosi (termitlar misolida). /Xorazm tarixiy me'moriy yodgorliklari: holati, ta'mirlash va foydalanish» mav-zusidagi respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. Xiva, 2003. - 3-5 b.